**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G‘. I. Muxamedov
_______________
2024 yil “___” _______

# MUSIQA NAZARIYASI. SOLFEDJIO
# O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – Ta’lim |
| **Ta’lim sohasi:** | 110000 - Ta’lim |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60110600 – Musiqa ta’limi |

**Chirchiq – 2024**

| Fan/modul kodi<br>MNS110 | | O'quv yili<br>2024/2025 | Semestr<br>1-2 | ECTS – Kreditlar<br>5-4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | | Ta'lim tili<br>O'zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>4-4 | |
| 1. | Fan nomi | Auditoriya mashg'ulotlari | | Mustaqil ta'lim | Jami yuklama |
| | Musiqa nazariyasi. Solfedjio. | 120 | | 150 | 270 |

2.

**I. Fanning mazmuni.**

Musiqa nazariyasi fanining maqsadi – talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va ularni idrok etish qobilyatini hosil qilish; talabalarning musiqiy dunyoqarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to'g'ri yo'naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish; talabalarni musiqa o'qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilar:

- talabalarga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushunib yetishishlarida chuqur bilimlar berish hamda musiqiy-texnik ko'nikmalarni o'rgatish;
- amaliy ishlardagi nota matnini o'qish jarayonini mukammallashtirish va ovoz intonatsiyasining sofligiga erishish;
- musiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlari, muhim musiqa elementlari, musiqiy rivojlanish printsiplari, shakldagi qismlar funktsiyasi bilan talabalarni tanishtirish va turli xil musiqiy shakllarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish;
- kompozitorlik ijodining ahamiyatli masalalari va asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqa tizimi va unda muhim o'rin egallagan garmoniya haqida aniq tushunchalar berish;
- talabalarning musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani xis eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, ularda lad, ritm, sur'at va uslub tuyg'usini tarbiyalash hamda o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdir.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Musiqiy tizim. Nota yozuvi tizimi.** Musiqa san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Musiqaning asosiy ifodali vositalari. Musiqiy tovush va uning xususiyatlari. Musiqiy tizim tovushqatori, oberton (yuqori ton), tabiiy tovushqator. Oktava. Temperatsiyalangan soz. Yarim ton va butun ton. Asosiy va hosila pog'onalar. Alteratsiya belgilari. Diatonik hamda xromatik yarim ton va butun tonlar. Diapazon, registr, tovushlar engormonizmi. Tovushlarni belgilash harfiy tizimi. Nota yo'li. Nota belgisi. Kalitlar. Tovush cho'zimlari. Cho'zim uzaytiruvchi belgilar. Pauzalar. Ko'p ovozlikni nota yo'lida yozish qoidalari. Akkolada, partitura. Dinamik belgilar. Nota yozuvini qisqartirish belgilari.

**2-mavzu. Ritm. Metr. Temp.** Ritm tushunchasi. Cho`zimlarning asosiy va erkin bo'linishi. Metr, hissa, takt tushunchalari. Oddiy metr va o'lchovlar. Nota cho'zimlarining oddiy taktlarda turkumlanishi. Murakkab metr va o'lchovlar. Aralash metr va o'lchovlar, O'zgaruvchan o'lchovlar. Nota cho'zimlarining murakkab va aralash taktlarda turkumlanishi. Sinkopa va uning turlari. Vokal musiqasida nota cho'zimlarini turkumlash. Temp va uning turlari.

**3-mavzu. Lad va tonallik. Parallel, nomdosh, engarmonik teng tonalliklar. Xalq musiqasi ladlari** Lad tushunchasi. Major ladi tuzilishi va gammasi. Turg'un va noturg'un pog'onalar. Asosiy va yondosh pog'onalar (lad pog'onalari funksiyalari). Tonallik tushunchasi. Major tonalliklar kvinta davrasi. Garmonik va melodik major. Minor ladi tuzilishi. Minor tonalliklar kvinta davrasi. Garmonik va melodik minor. Parallel, nomdosh, engarmonik teng tonalliklar.Xalq musiqasining 7 pog'onali ladlari.

**4-mavzu. Intervallar. Tabiiy major va tabiiy minor intervallari.** Interval tushunchasi. Garmonik va melodik interval. Intervalning son va sifat miqdorlari. Oddiy va tarkibli intervallar. Konsonans va dissonans intervallar. Intervallar aylanishi. Tabiiy major va minor intervallari. Turg'un va noturg'un intervallar. Intervallar yechilishi.

**5-mavzu. Garmonik major va garmonik minor intervallari. Xromatik intervallar. Intervallar engarmonizmi.** Garmonik major va minor intervallari – xarakterli intervallar. Xromatik intervallar va ularning yechilishi Intervallar engarmonik tengligi.

**6-mavzu. Akkord. Uchtovushlik va uning turlari. Septakkord va uning turlari. Dominantseptakkord.** Akkord tushunchasi. Akkord turlari. Uchtovushlik tushunchasi. Uchtovushlik turlari va aylanmalari. Ladning asosiy va yondosh uchtovushliklari.

**7-mavzu. Septakkord va uning turlari. Dominantseptakkord.** Septakkord tushunchasi va uning turlari. Dominantseptakkord, uning tuzilishi, aylanmalari va yechilishi.

**8-mavzu. Yetakchiseptakkord. Subdominantseptakkord.** Yetakchi septakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi. Subdominantseptakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi. Kuydagi akkordlar.

**9-mavzu. Tonalliklar qardoshligi. Alteratsiya va xromatizm. Modulyatsiya. Transpozitsiya.**Tonalliklar qardoshligi haqida tushuncha. Alteratsiya va xromatizm. Xromatik gamma tuzilishi. Modulyatsiya turlari. Asar tonalligini aniqlash. Transpozitsiya uslubiyoti.

**10-mavzu. Kuy tuzilishi. Melizmlar va ijro etishning ayrim usullar belgilari.**
Musiqa asarida kuyning ahamiyati. Kuy harakati turlari. Kuy tuzilishi va tarkibiy qismlari haqida.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy mashg'ulotlarda quyidagi mavzular bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi:

**1-mavzu.** Musiqiy tizim elementlari. Nota yozuvi elementlari. Nota cho'zimlari va ularni uzaytiruvchi qo'shimcha belgilar. Kalitlar. Pauzalar. Ko'p ovozlik nota yozuvida. Nota yozuvini qisqartirish belgilari
**2-mavzu.** Nota cho'zimlarning asosiy va erkin ravishda bo'linishi. Oddiy taktlarda nota cho'zimlarining turkumlanishi.
**3-mavzu.** Murakkab taktlarda nota cho'zimlarining turkumlanishi. Sinkopa. Vokal musiqasida nota cho'zimlarini turkumlash.
**4 -mavzu.** Lad (major va minor ladi). Tonalliklar kvinta davrasi. Major va minorning garmonik va melodik turlari.
**5-mavzu.** Parallel, nomdosh, engarmonik teng tonalliklar.
**6-mavzu.** Xalq musiqasi ladlari.
**7-mavzu.** Oddiy va tarkibli intervallar.
**8-mavzu.** Intervallar aylanishi.
**9-mavzu.** Xromatik intervallar. Intervallar engarmonik tengligi.
**10-mavzu.** Tabiiy major va minor intervallari va ularning yechilishi.
**11-mavzu.** Uchtovushliklar.
**12-mavzu.** Uchtovushliklar, uning turlari, aylanmalari.

**13-mavzu.** Majorning asosiy va yondosh uchtovushliklari, ularning aylanmalari va yechlishi.
**14-mavzu.** Minorning asosiy va yondosh uchtovushliklari, ularning aylanmalari va yechlishi
**15-mavzu.** Dominantseptakkord, uning aylanmalari va yechilishi.
**16-mavzu.** Yetakchi septakkord, uning aylanmalari va yechilishi.
**17-mavzu.** Ikkinchi pog'ona septakkordi, uning aylanmalari va yechilishi.
**18-mavzu.** Xromatik gamma.
**19-mavzu.** Kuy tuzilishi.
**20-mavzu.** Melizmlar va ijro etishning ayrim usullari.

**IV. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Laboratoriya mashg'ulotlarda quyidagi mavzular bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi:
**1-mavzu.** Solfedjio kursi ish shakllari – intonatsion mashqlar kuylash, solfedjiolash, notanish notali matnni o'qib kuylash, tinglab aniqlash, musiqiy diktant yozish.
**2-mavzu.** Klaviatura bilan tanishuv, tovushqator, nota cho`zimi, pauza, "sol" va "fa" kaliti.
**3-mavzu.** Ritm. Metr. O`lchov. Dirijorlik sxemalar.
**4-mavzu.** Oddiy 2 va 3 hissali o`lchovlar.
**5-mavzu.** Murakkab metrlar. 4/4 o`lchovi.
**6-mavzu.** Bir ovozli namunalarni solfedjio qilib kuylash.
**7-mavzu.** Ikki ovozli namunalarni solfedjio qilib kuylash.
**8-mavzu.** Major lad turlari.
**9-mavzu.** 7 ta belgigacha major tonalliklari. Major gammalari. Ularning tabiiy, garmonik, melodik turlari.
**10-mavzu.** Minor lad turlar.
**11-mavzu.** 7 ta belgigacha minor tonalliklari. Minor gammalari. Ularning tabiiy, garmonik, melodik turlari.
**12-mavzu.** Parallel va nomdosh tonalliklarda ishlash
**13-mavzu.** Diatonik sekvensiyalarni kuylash
**14-mavzu.** Xalq ladlari ustida ishlash.
**15-mavzu.** Oddiy, tarkibli intervallar va ularning aylanmalari.Tinglab aniqlash
**16-mavzu.** Major va minorning asosiy intervallari.
**17-mavzu.** Uchtonliklar, ularni tuzish, yechish va kuylash. Tinglab aniqlash.
**18-mavzu.** Xarakterli intervalar, tuzilishi va yechilishi.
**19-mavzu.** Xromatik gamma.
**20-mavzu.** Uchtovshliklar va ularning aylanmalari.
**21-mavzu.** Ladaning asosiy uchtovshliklari va ularning aylanmalari. Tinglab aniqlash.
**22-mavzu.** Ladning asosiy septakkordlari va ularning aylanmalari (Dominantseptakkord).
**23-mavzu.** Ladning asosiy septakkordlari va ularning aylanmalari (Subdominantseptakkord).
**24-mavzu.** Ladning asosiy septakkordlari va ularning aylanmalari (Yetakchi septakkordlar).
**25-mavzu.** Akkordar ketma-ketliklari ustida ishlash.
**26-mavzu.** Uch ovozli namunalarni solfedjio qilib kuylash
**27-mavzu.** Diktantlar yozish (melodik bir, ikki ovozli diktant, garmonik - intervalli yoki akkordli diktant, ritmik diktant, og'zaki diktant va x.k.).
**28-mavzu.** Majordan birinchi darajali o'xshash tonalliklarga og`ishma, modulyatsiya qilingan melodik va garmonik misollar ustida ishlash.
**29-mavzu.** Minordan birinchi darajali o'xshash tonalliklarga og`ishma, modulyatsiya qilingan melodik va garmonik misollar ustida ishlash.
**30-mavzu.** Musiqiy asarga akkomponiment terish.

**V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Musiqiy tizim.
2. Tovush hususiyatlari.
3. Nota yozuvi tizimi elementlari.
4. Ritm.
5. Metr turlari.
6. Temp atamalari.
7. Musiqa va fizika.
8. Dinamik belgilari va ularni qo'llanish qoidalari.
9. Major va minorning garmonik va melodik turlari.
10. Oddiy intervallar, aylarmalari va ularni yechilishi.
11. Tarkibli intervallar, aylarmalari va ularni yechilishi.
12. Intervallar aylanishi qoidalari.
13. Xromatik intervallar va ularni yechilashi.
14. Intervallarning engarmonik tengligi.
15. Tabiiy major va minor intervallari va ularning yechilishi.
16. Xarakterli intervallar va ularning yechilishi.
17. Uchtovushlik turlari va uning aylanmalari.
18. Asosiy va yondosh uchtovushliklar, ularning aylanmalari.
19. Septakkordlar, aylanmalari va ularning yechilishi.
20. Akkordlar ketma-ketliklari.
21. Akkordlar engarmonik tengligi.
22. Major va minorning xromatik gammalari
23. Kuy tuzilishining tahlili.
24. Musiqa bezaklari va ijrochilik
25. Musiqa elementar nazariyasiga oid misollar yechish.
26. Ostrovskiy A.L., Solovyov S.N., Shokin V.P. "Sol'fedjio" (bir ovozlik) to'plamidan mashqlar kuylash.
27. Sposobin I.V. "Sol'fedjio" (ikki ovozlik) to'plamdan mashqlar kuylash.
28. Rahimov Qadamboy, Bahriyev A., Do'stov S. "Musqaning elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar" to'plamidan mashq va vazifalarni bajarish.
29. Amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko'rish.
30. Laboratoriya mashg`ulotlariga tayyorgarlik ko'rish.
31. Fanning auditoriya mashg`ulotlaridan tashqari mavzularni o'rganish.
32. Yakka va kichik guruhlarda musiqiy amaliy loyihalar tayyorlash.

| | |
|---|---|
| | 33. Yoddan musiqiy, ritmik, garmonik diktantlar yozish.<br>34. Musiqa nazariyasidan testlar tuzish.<br>35. Musiqa nazariyasidan testlar yechishni mashq qilish.<br>36. Musiqa nazariyasidan ijodiy ishlar bajarish: o'quvchilar uchun testlar, krossvord, skanvordlar tuzish.<br>37. Musiqa nazariyasidan mavzu bo'yicha planshet tuzish.<br>38. Musiqa nazariyasidan videorolik yaratish.<br>39. Harakatli-rimik kompozitsiya yaratish.<br>40. Ko'p ovozli kompozitsiya yaratish. |
| 3. | **VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>- musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushunadilar, hamda musiqiy-texnik ko'nikmalarga ega bo'ladilar; garmoniya, musiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlari, musiqiy rivojlanish printsiplari, shakldagi qismlar funktsiyasi bilan tanishadilar va turli xil musiqiy shakllarni tahlil qila oladilar; musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani his eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, lad, ritm, sur`at va uslub tuyg`usini tarbiyalashni amaliyotda ***qo'llay oladi.***<br>- kelajakdagi kasbiy faoliyatda musiqa elementlari nazariyasi, sal'fedjio, kuyni garmoniyalash, musiqa asarlarni tahlil qilish fanlar sohalari bo'yicha bilim, ***malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi***; ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etadilar. |
| 4. | **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruza, amaliy topshiriqlar bajarish;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• kichik guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual musiqiy loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun amaliy loyihalarni amalga oshirish. |
| 5. | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy-uslubiy, amaliy-musiqiy tushuncha va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirish, musiqiy asarni tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan asar va tushunchalar janri, muiqiy yo'li haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **IX. Asosiy adabiyotlar:**<br>1 Urmanova L., Trigulova A., Ibrahimjanova G.A. Musiqa elementlari nazariyasi va garmoniya. Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2013<br>2. Fayziyev O., Rahimov Q. Musiqa asarlar tahlili. Navoiy, 2015<br>3. Островский А.Л.,Соловьев С.Н., Шокин В.П. Сольфеджио. М., «Музыка», 2013.<br>4. Способин И.В. Сольфеджио. М., «Музыка», 2014.<br>5. Rahimov Q. Musqaning elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami. T. "Ozbekiston", 2006<br><br>**X. Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1.Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. (Ma'lumotnoma), Toshkent, "Musiqa", 2007.<br>2. Агажанов А. Курс сольфеджио, М., "Музыка", 1974.<br>3.Rahimov Q. Garmoniya bo'yicha mashq va masalalar to'plami. «Aloqachi», 2005.<br>4. Сами Азиз ўғли. Гармония. Т., «Ўзбекистон», 2002.<br>5. Ibrohimov O., Yunusov R. Sol'fedjio darsligi. Toshkent, «Musiqa», 2004.<br>6.Azizov O. Sol'fedjio (ko'p ovozli). Toshkent, «Musiqa», 2007.<br>7. Способин И.В. Элементарная теория музыки. Москва, «Кефара», 1996 (Электрон)<br>8. Способин И. В. Музыкальная форма. Москва, 1984 (Электрон)<br><br>**Axborot manbalari:**<br>www.lib.cspi.uz<br>www.pedagog.uz<br>www.edu.uz<br>www.ziyonet.uz |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil "29" 08 dagi 1 qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>M.S. Muxitdinova- CHDPU "Musiqa ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi.<br>O.G'.Yunusov - ChDPU "Musiqa ta'limi" kafedrasi mudiri v.b. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**A.Q.Lutfullayev** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Ijro mahorati va madaniyati" kafedrasi mudiri, professor.<br>X.E.Sultanov – ChDPU San'atshunoslik fakulteti dekani, PhD, v.v.b. professor. |